

INGLIZ ADABIYOTLARIDA JO'JI ULUSINING O'RGANILISHI

Xoliqov Jasurbek Xakimjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

Tarix mutaxassisligi II-bosqich magistranti

+998936410766

jasurbekxoliqov1999@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz adabiyotlarida Jo'ji ulusining tarixiy o'rganilishi chuqur tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor G'arb tarixchilari va tadqiqotchilarining Jo'ji ulusi haqida yozgan asarlariga qaratiladi. Maqolada Jo'ji ulusining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti ingliz tilidagi manbalar asosida keng yoritilib, uning tarixdagi o'rni va Yevropa bilan aloqalari qanday talqin etilganligi aniqlanadi. Tadqiqotda ingliz tilidagi muhim ilmiy maqolalar, monografiyalar va tarixiy asarlar asosida muhokama yuritiladi. Shu bilan birga, Jo'ji ulusining o'ziga xosligi, uning Chingizxon saltanatidagi roli, keyinchalik mustaqil siyosiy tuzilma sifatida shakllanishi, diniy omillar va xalqaro diplomatik munosabatlari ingliz tadqiqotchilari nigohida qanday yoritilganiga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar va iboralar: Jo'ji ulusi, Oltin O'rda, G'arb tarixchilari, ingliz tarixshunosligi, Chingizxon, siyosiy tuzilma, diplomatik aloqalar, tarixiy metodologiya.

Аннотация: В данной статье будет подробно проанализировано историческое изучение Джоджи Улуса в английской литературе. Основное внимание уделяется работам западных историков и исследователей, написавших о Джоджи Улусе. В статье будет широко освещена политическая, экономическая и культурная жизнь Джоджи Улуса на основе источников на английском языке, а также будет определено, как трактуется его роль в истории и отношения с Европой. Исследование будет основано на важнейших научных статьях, монографиях и исторических трудах на английском языке. В статье также рассматриваются особенности Джоджи Улуса, его роль в Чингизидской империи, последующее становление как независимой политической структуры, религиозные факторы и международные дипломатические отношения, а также то, как они были освещены глазами английских исследователей.

Ключевые слова и фразы: Джоджи Улус, Золотая Орда, западные историки, английская историография, Чингисхан, политическая структура, дипломатические отношения, историческая методология.

Annotation: This article provides an in-depth analysis of the historical study of the Jöji Ulus in English literature. The primary focus is on the works of Western

historians and scholars who have written about the Jöji Ulus. The article extensively discusses the political, economic, and cultural life of the Jöji Ulus based on English-language sources, and it determines how its role in history and relations with Europe have been interpreted. The research will be based on key scholarly articles, monographs, and historical works in English. Additionally, the article addresses the uniqueness of the Jöji Ulus, its role in the Chinggisid Empire, its later development as an independent political entity, religious factors, and international diplomatic relations, as well as how these aspects have been portrayed by English researchers.

Keywords and phrases: Jöji Ulus, Golden Horde, Western historians, English historiography, Chinggis Khan, political structure, diplomatic relations, historical methodology.

Jo'ji ulusi – XIII asr boshlarida Chingizxonning to'ng'ich o'g'li Jo'ji uchun ajratilgan hududlar asosida tashkil topgan siyosiy tuzilma bo'lib, keyinchalik bu hududlarda Oltin O'rda davlati paydo bo'lgan. Jo'ji ulusi o'z davrida Yevrosiyo hududining yirik siyosiy, iqtisodiy va harbiy kuchiga aylangan. [5: 89] Ingliz tarixshunosligida Jo'ji ulusiga nisbatan yondashuvlar turlicha bo'lib, asosan ikki bosqichga – XIX–XX asr boshlaridagi orientalistik yondashuvlar va zamonaviy postkolonial tarixshunoslik nuqtayi nazaridan qaraladi.

Jo'ji ulusining tarixiy-geosiyosiy negizi: Chingizxon merosi va G'arbiy yurishlar Jo'ji ulusining shakllanishi XIII asr boshlarida, Chingizxonning g'arbiy yurishlari bilan bevosita bog'liq. Jo'ji, Chingizxonning to'ng'ich o'g'li sifatida, Dashti Qipchoq va Volga bo'ylaridagi ulkan hududlarni meros qilib olgan. Ingliz tarixchilari, xususan David Morgan va Thomas Allsen, Jo'ji ulusining bu davrda strategik va siyosiy ahamiyatini ta'kidlaydilar.

Jo'ji ulusining hududiy kengayishi va Jo'jining o'limidan so'ng, uning o'g'li Batu tomonidan G'arbiy yurishlar davom ettirildi. G'arb tarixchilari bu yurishlarni Yevropa tarixidagi eng muhim harbiy bosqinchiliklardan biri sifatida talqin qiladilar. Peter Jackson o'z asarida Jo'ji ulusining bu davrdagi harbiy ekspansiyasini va u orqali tashkil topgan davlat tizimining asoslarini tahlil qiladi.

Peter Golden, David Morgan, Thomas Allsen, Charles Halperin, Peter Jackson kabi ingliz tilida ijod qilgan tarixchilar asarlarida Jo'ji ulusi har xil nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Masalan, Golden o'zining "An Introduction to the History of the Turkic Peoples" asarida Jo'ji ulusini turkiy dunyo tarixining muhim qismi sifatida ko'radi. U Jo'ji ulusining siyosiy tuzilmasi, ijtimoiy munosabatlari, etnik tarkibi va iqtisodiy rivojlanishi haqida batafsil ma'lumot beradi. Peter Goldenning asarlarida Jo'ji ulusi turkiy dunyo tarixining muhim qismi sifatida tahlil qilinadi [1: 24]

David Morganning "The Mongols" asari esa Jo'ji ulusining Chingizxon imperiyasi doirasidagi roli, uning Yevropa bilan munosabatlari, savdo yo'llaridagi

oʻrni, elchilik missiyalari va madaniy almashinuvlarini keng yoritadi. [2: 67] Morgan asarida Joʻji ulusining Rim papaligi, Venetsiya va Genuya bilan boʻlgan diplomatik aloqalarini tahlil qiladi. Shuningdek, Morgan oʻz asarida Joʻji ulusining harbiy salohiyati, yurish strategiyalari va Yevropa davlatlariga nisbatan olib borgan siyosatini chuqur tahlil qiladi. [2: 122] U Joʻji ulusini Chingizxon saltanatining tarkibiy qismi sifatida emas, balki oʻz manfaatlariga ega mustaqil davlat sifatida koʻradi. Morgan oʻzining ushbu asarida Joʻji ulusining shakllanishida geografik holat, etnik tarkib va harbiy yurishlarning hal qiluvchi rolini tahlil qiladi.

Thomas Allsen Joʻji ulusining ilm-fan, madaniyat va din sohasidagi faoliyatiga eʼtibor qaratadi. Uning tadqiqotlarida, ayniqsa, islom dinining Joʻji ulusi hududida tarqalishi, diniy mafkuraning siyosatga taʼsiri, madrasalar va dini muassasalar faoliyati, ulamolar bilan aloqalar haqida muhim maʼlumotlar berilgan. [4: 77] Allsen Joʻji ulusining diniy bagʻrikenglik siyosatini alohida tilga oladi. Unga koʻra, bu siyosat musulmonlar, nasroniylar va boshqa diniy guruhlar oʻrtasida tinch-totuv yashashga zamin yaratgan.

Charles Halperin "Russia and the Golden Horde" nomli asarida Joʻji ulusining rus knyazliklariga koʻrsatgan siyosiy va iqtisodiy taʼsirini chuqur tahlil qiladi. [5: 55] Uning fikricha, Joʻji ulusi nafaqat bosqinchilik kuchi, balki davlat boshqaruvi tajribasiga ega siyosiy subʼyekt sifatida qaralishi lozim. Halperin, ayniqsa, rus knyazliklari bilan Joʻji ulusi oʻrtasidagi soliq tizimi, vasallik munosabatlari, va madaniy aloqalarni chuqur yoritadi. Halperin "Russia and the Golden Horde" nomli asarida Oltin Oʻrdaning ichki siyosati, soliqqa tortish tizimi va Rossiya knyazliklariga boʻlgan siyosiy nazoratni ingliz tarixiy yondashuvi asosida oʻrganadi. Oltin Oʻrdaning hukmdorlar sulolasi, ayniqsa Joʻji avlodlari – Botuxun, Oʻzbekxon va Jonibek kabi xonlarning siyosati Gʻarb tarixchilarining eʼtibor markazida boʻlgan.

Peter Jackson "The Mongols and the West, 1221–1410" asarida Joʻji ulusining Gʻarbiy Yevropa bilan aloqalari, elchilik missiyalari, diniy va siyosiy muloqotlar, savdo aloqalari, Gʻarb tarixchilari nazaridagi mongollar haqidagi stereotiplar va ularning evolyutsiyasini koʻrsatib beradi. U, shuningdek, ingliz tarixchilarining Joʻji ulusini qanday koʻrganini, ularning qadriyatlari va siyosiy qarashlarining tarixiy voqealarga qanday taʼsir qilganini tahlil qiladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda Joʻji ulusi koʻproq mustaqil siyosiy subʼyekt, kuchli boshqaruv tizimiga ega boʻlgan davlat, madaniy integratsiyaga ochiq tuzilma sifatida talqin qilinmoqda. Bu esa ilgari keng tarqalgan stereotiplardan voz kechib, tarixiy haqiqatni chuqurroq anglashga imkon yaratadi. Ingliz adabiyotlarida bu yondashuvlar, ayniqsa XXI asrda, yanada aniqlik va tafsilotlar bilan boyitilmoqda.

Joʻji ulusining Gʻarb bilan aloqalari, ayniqsa diplomatik missiyalar, savdo elchilari, diniy vakillar orqali yuzaga kelgan munosabatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Baʼzi manbalarda Joʻji ulusi elchilari Papa saroyiga, shuningdek, Vizantiya va Rim

imperatorlariga elchilar yuborgani haqida ma'lumotlar mavjud. Bu aloqalar orqali ikki sivilizatsiya o'rtasida madaniy va ilmiy almashinuv sodir bo'lgan.

Shuningdek, ingliz tadqiqotchilari Jo'ji ulusining iqtisodiy siyosatiga ham alohida e'tibor qaratgan. Ularning asarlarida Jo'ji ulusining yirik savdo yo'llari – Ipak yo'li orqali olib borilgan tashqi savdo, bojxona siyosati, soliq tizimi va savdogarlarning huquqiy maqomi haqida batafsil ma'lumotlar keltiriladi. Ayniqsa, Golden va Morgan kabi mualliflar bu masalalarni iqtisodiy tarix kontekstida chuqur tahlil qilishgan.

Diniy yo'nalishda esa Jo'ji ulusining islomni davlat dini sifatida qabul qilgani, bu qarorning siyosiy va madaniy oqibatlari, diniy muassasalar bilan aloqalari, islomiy ilm-fan rivojiga qo'shgan hissi alohida yoritilgan. Reuven Amitai, Anne Broadbridge kabi tadqiqotchilar Jo'ji ulusining islom dunyosi bilan aloqalarini Yaqin Sharqdagi tarixiy jarayonlar bilan bog'lab o'rganishgan. O'zbekxon (1312–1341) Oltin O'rda tarixida muhim burilish yasagan hukmdorlardan biri sifatida G'arb tarixchilari tomonidan e'tirof etiladi. Uning siyosiy islohotlari va islomni rasmiy davlat dini sifatida tan olishi Oltin O'rdaning ichki va tashqi siyosatiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ingliz tarixchilari, jumladan Peter Golden, David Morgan va Charles Halperin O'zbekxon siyosatini G'arb bilan aloqador voqealar zahirida tahlil qilganlar. O'zbekxon davrida davlatning islom diniga rasmiy maqomda o'tishi, bir tomondan, saltanatda markazlashgan boshqaruvni mustahkamlashga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, u Markaziy Osiyo va musulmon dunyosi bilan yanada yaqin aloqalarni yo'lga qo'ygan. G'arb tarixchilari, ayniqsa Broadbridge va Amitai, O'zbekxonning bu qarorini diniy diplomatiya va sivilizatsiyalar o'rtasidagi aloqalar nuqtayi nazaridan baholaydilar. Islom Oltin O'rdada faqat diniy e'tiqod emas, balki siyosiy mafkura vositasi ham bo'lgan. Oltin O'rda–Movarounnahr–Xorazm munosabatlari G'arb tarixchilari nigozida G'arb tarixshunosligida Oltin O'rda va Movarounnahr, Xorazm o'rtasidagi munosabatlar savdo, siyosat va din mezonlari asosida yoritilgan. Peter Jackson va Reuven Amitai o'z asarlarida Movarounnahrni Oltin O'rda uchun muhim strategik va diniy markaz sifatida tasvirlaydi. Ularning fikricha, O'zbekxon islomga o'tgach, Movarounnahr va Xorazm ulamolari bilan aloqalar mustahkamlangan, bu esa ilm-fan va dini mafkuraning saroy siyosatiga kirib kelishiga olib kelgan.

Jo'ji ulusining harbiy salohiyati va strategik siyosati haqida esa Saunders, May va Sinor kabi tarixchilar keng ma'lumot bergan. Ular Jo'ji ulusining harbiy yurishlari, jangovar taktikasi, qo'shin tuzilmasi, otliq qo'shinlar ustunligi va harbiy texnologiyalar borasida muhim tahlillarni taqdim etgan. Bu yondashuvlar Jo'ji ulusining nafaqat siyosiy, balki harbiy tarixidagi o'rnini ham chuqurroq ochib beradi.

Zamonaviy G'arb tarixchilari Jo'ji ulusini faqat harbiy kuch emas, balki muhim savdo va madaniy bog'lanishlar markazi sifatida tasvirlaydilar. Ular bu ulusni Yevroosiyo tarixida madaniy almashinuv, siyosiy integratsiya va dinamik iqtisodiy

taraqqiyot markazi sifatida baholaydilar. Gʻarbiy Yevropa bilan diplomatik va savdo aloqalari (Venetsiya, Genuya, Rim papaligiga elchiliklar) Gʻarb adabiyotlarida Oltin Oʻrda va Yevropa davlatlari oʻrtasidagi munosabatlar chuqur oʻrganilgan. Venetsiya va Genuya bilan savdo aloqalari, ayniqsa Qora dengiz boʻyidagi port shaharlar orqali olib borilgan iqtisodiy faoliyat Gʻarbiy tarixchilar tomonidan batafsil yoritilgan. Jackson va Halperin bu aloqalarni Yevropaning sharq bilan bogʻlovchi asosiy kanali sifatida baholaydilar. Rim papaligiga yuborilgan elchilar, xususan XIV asr boshidagi diplomatik harakatlar, Oltin Oʻrda tashqi siyosatining keng qamrovli va uzoqni koʻzlab olib borilganini koʻrsatadi. Ingliz tarixchilari, jumladan Broadbridge va Jackson, bu diplomatik aloqalarni faqat siyosiy emas, balki diniy nuqtayi nazardan ham baholab, sivilizatsiyalar oʻrtasidagi muloqotda Oltin Oʻrdaning oʻrnini belgilab beradilar.

Shuningdek, bu davrda Yevropa va Oltin Oʻrda oʻrtasida savdo elchiliklari orqali faollashgan tovar aylanishi, Yevropa manbalarida Oltin Oʻrda tillarining va siyosiy tartiblarining tasvirlanishi, Gʻarb tarixchilari tomonidan Joʻji ulusining Yevropa tarixiga qoʻshgan hissasi sifatida koʻriladi.

Bunday ilmiy yondashuvlar Joʻji ulusining Oʻrta asrlar Yevrosiyo tarixidagi oʻrni, u amalga oshirgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar, diniy bagʻrikenglik siyosati, xalqaro aloqalar va savdo tizimi boʻyicha koʻplab yangi qarashlarni yuzaga chiqarmoqda. Bu esa mazkur mavzuni yana-da chuqurroq oʻrganish uchun mustahkam asos yaratadi.

Manbalar va adabiyotlar:

1. Golden, Peter B. *An Introduction to the History of the Turkic Peoples*. Wiesbaden: Otto Harrassowitz, 1992.
2. Morgan, David. *The Mongols*. Oxford: Blackwell, 1986.
3. Lamb, Harold. *Genghis Khan: The Emperor of All Men*. New York: Doubleday, 1927.
4. Allsen, Thomas T. "Mongolian Princes and their Southern Neighbors: National Identity in Medieval Eurasia." *Journal of Asian History*, 1989.
5. Halperin, Charles J. *Russia and the Golden Horde: The Mongol Impact on Medieval Russian History*. Bloomington: Indiana University Press, 1985.
6. Amitai, Reuven. *The Mongols and the Islamic World: From Conquest to Conversion*. Cambridge University Press, 2019.
7. Jackson, Peter. *The Mongols and the West, 1221–1410*. London: Routledge, 2005.
8. Broadbridge, Anne F. *Kingship and Ideology in the Islamic and Mongol Worlds*. Cambridge University Press, 2008.
9. Atwood, Christopher. *Encyclopedia of Mongolia and the Mongol Empire*. Facts on File, 2004.
10. Biran, Michal. *Qaidu and the Rise of the Independent Mongol State in Central Asia*. Curzon Press, 1997.

11. Saunders, J. J. *The History of the Mongol Conquests*. University of Pennsylvania Press, 2001.
12. May, Timothy. *The Mongol Art of War*. Westholme Publishing, 2007.
13. Sinor, Denis. *The Cambridge History of Early Inner Asia*. Cambridge University Press, 1990.

